

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA RAMZIYLIK

Ubaydullayeva Surayyo Xotomjon qizi,

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Nazarova Xilola Gulomjonovna,

Ilmiy rahbar: O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

E-mail: surayyoubaydullayeva77@gmail.com

Annotatsiya. Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi asosiy g'oya va mazmun insonning ichki dunyosi va kechinmalari, jamiyat va hayotdagi o'rni kabi masalalarini qamrab oladi. Yozuvchining hikoyalarida umuminsoniylik, Vatanga va millatga bo'lgan sof muhabbat ramziy obrazlar orqali yoritilganligini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar. ramziylik, "Zov ostida adashuv", adib merosi, "Ota yurt", millat va yurt istiqboli, "Olam tortilish qonuni".

ŞUKUR KHOLMIRZAYEV'İN HİKAYELERİNDE SEMBOLİZM

Ubaydullayeva Surayyo Khotomjon kizi,

Özbekistan – Finlandiya Pedagoji Enstitüsü öğrencisi

Nazarova Khilola Gulomjonovna,

Bilimsel danışman: Özbek dili ve edebiyatı bölümü öğretmeni

Özet. Şukur Kholmirzayev'in öykülerinin ana fikri ve içeriği, insanın iç dünyası ve yaşantıları, bunların toplum ve yaşamdaki yeri gibi konuları kapsar. Yazarın öykülerinde evrensel insanlığın, vatan ve millete duyulan saf sevginin sembolik imgelerle aydınlatıldığı görülür.

Anahtar kelimeler. Sembolizm, "Deniz Altında Kaybolanlar", edebi miras, "Vatan", milletin ve ülkenin geleceği, "Yer Çekimi Yasası".

СИМВОЛИЗМ В РАССКАЗАХ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА

Убайдуллаева Сурайё Хотомжон кызы,

студентка Узбекско-Финского педагогического института

Назарова Хилола Гуломжоновна,

научный руководитель: ассистент кафедры узбекского языка и литературы

Аннотация. Основная идея и содержание рассказов Шукура Холмирзаева вращаются вокруг таких вопросов, как человеческий мир и его переживания, его место в обществе и жизни. В рассказах писателя мы видим, как общечеловеческая человечность, чистая любовь к Родине и народу раскрываются через символические образы.

Ключевые слова. Символизм, «Затерянные в море», литературное наследие, «Отечество», будущее нации и страны, «Закон тяготения».

SYMBOLISM IN SHUKUR KHOLMIRZAYEV'S STORIES

Ubaydullayeva Surayyo Khotomjon qizi,

Student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Nazarova Khilola Gulomjonovna,

scientific supervisor: teacher of the department of Uzbek language and literature

Abstract. *The main idea and content of Shukur Xolmirzayev's stories cover issues such as the inner world and experiences of a person, his place in society and life. We can see that in the writer's stories, universal humanity, pure love for the Motherland and the nation are illuminated through symbolic images.*

Keywords. *Symbolism, "Lost under the weight", literary heritage, "Fatherland", the future of the nation and the country, "The law of universal gravitation".*

Zamonaviy o'zbek nasrining zabardast vakili O'zbekiston xalq yozuvchisi, Mehnat shuhrati ordeni sohibi Shukur Xolmirzayev o'zining serqirra ijodi bilan O'zbek adabiyotimizga o'zgacha nafas olib kirgan adiblardan biridir. Adibning betakror asarlariga singdirilgan qadriyatlar o'zbek elining chehrasini qadr-qimmatini va ko'hna an'analarini butun dunyoga yoydi. U hayoti davomida adabiyotga bo'lgan qarashini "Adabiyotning o'suvi millatning o'suviga garov va millatning kamolini ko'rsatuvchi oynasi"[2.42] deya ta'kidlagan. U yaratgan asarlari, hikoyalari va qissalarini o'qib, uning mazmuni g'oyasida soddalik, tabiat va jamiyat o'rtasidagi manzaralarni zo'r tashbehlar bilan yoritadi. Hikoyalarini o'rganish orqali adibning ijodini kengroq tushungan bo'lamiz. Shukur Xolmirzayev asarlaridagi asosiy g'oya insonning o'zi va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni topishdir.

Adib ko'p holatlarda inson hayoti, jamiyatdagi o'zgarishlar, hayot bilan bog'liq qiyinchiliklar haqida yozadi. Voqealarni tasvirlashda juda muhim ijtimoiy masalalarni ko'taradi. Har bir tasvirlayotgan qahramonning ichki dunyosini tasvirlab, uning ruhiy xolatini chuqur o'rganadi. Barcha asarlari o'quvchini chuqur tafakkur qilishga majbur qiladi. Misol uchun "Zov ostida adashuv" hikoyasida bir yoshgina bolaning hayotdagi intilishlari, o'ylagan o'ylarini chuqur mulohazalarini adashgan manzildan to'g'ri yo'lni topa olganini umuman olganda kattalardek mulohazalarini ko'rsatish bilan vohaninig ajoyib tabiatini betakror chizgilar bilan ta'riflashi, o'quvchi o'zini xuddi asar ichida zov bo'yidagidek his qiladi.

Qahramonimiz yo'lda adashganida qo'rqib yig'lamadi, vahimaga tushmadi, aksincha "yig'laganimdan nima foyda, aqlni ishlatishim kerak" deya chora izladi. Barcha qiyinchiliklarni yengishga astoydil harakat qildi [4,11]. Hikoyada yozuvchi hayotdagi har bir hodisa yoki voqeadan saboq olib, tabiatni yaxshi o'rganib aql-farosat bilan yo'l topish mumkinligi tasvirlaydi. U yuksalishga undashni o'z asarlarining maqsadi deb hisoblaydi. Shuningdek, Xolmirzayevning hayvonlar haqida yozgan asarlari ham talaygina. Uning "Uchinchi hamroh" asari e'tiborimizni tortadi. Asarda oddiy itning insonlarcha qilgan harakatlarini, arazini, mehrini, ko'rishimiz mumkin. It mehr, e'tibor bilan, zanjirlanmasdan Ziyorat tomonidan o'stiriladi. Yillar o'tdi. It qariy boshladi. Tishlari to'kildi. Lekin, qarishiga qaramasdan, undagi barcha odatlar saqlanib qoladi. U hech nimaga so'roqsiz tegmaydigan, faqat bersagina yeydigan it bo'ladi. Ovga chiqishadi va ov so'nggida hamma ovga chiqqanlar ovqatlanishadilar. Ammo, ular ovga yordam bergan, vafodor itiga ovqat berishni unutishadi. U xafa bo'ladi va ortidan Ziyoratning chaqirishiga qaramasdan o'zining eng ko'p o'tiradigan joyi - ko'priq tomon ketaveradi. Ziyorat uyga borar degan o'y bilan e'tiborsiz yana ovqatlanishga qaytadi. Kechqurun uyga kelsa iti yo'q va birdaniga hayoliga ko'priq keladi. U o'sha yerga yuguradi. Afsuski, ko'priq ostidan itini jonsiz holatda topadi. Uni qarilik emas, birgina e'tiborsizlik o'ldirdi [4.65]. Yozuvchi qahramonlarning hayotini, ularning kechinmalarini chuqur tahlil qilish orqali hayotning murakkabliklarini ochib beradi. Ayniqsa, hikoyalaridagi zamonaviylik va an'anaviylik o'rtasidagi muvozanat o'ziga xosdir.

Adibning o'ziga jalb etuvchi, asarlari ko'p. Ulardan yana biri "Kimsasiz hovli" hikoyasidir. Hikoyada kichik oilaning hayoti tasvirlangan. Boylik ko'zlarini ko'r qilgan insonlar va ularning o'zlariga o'xshamagan mehribon farzandi. Ular aslida o'zligini unutgan kimsalar. Uydagi boyliklarini asrash uchun it boqib, ana o'sha it farzandi umriga zomin bo'lganining guvohi bo'lamiz. Xolmirzayev hikoyalarida insonning hayotdagi murakkabligini, uning qarorlar qabul qilishdagi qiyinchiliklarini fojiiy tarzda ochib beradi. Bu esa uning asarlarini yanada ta'sirchan va o'ylantiruvchi qiladi. Asarlaridagi bu fojiiy g'oya insonning dunyoqarashi va uning jamiyat bilan o'zaro munosabati orqali aks etadi. U hayotni qanday murakkab va adolatsiz bo'lishini ko'rsatadi. Yozuvchi ijodida voqelikni realistik tasvirlash uslubi o'zining maxsus badiiy ifodalariga ega. Misol

uchun, adibni "Ota yurt" hikoyasini olaylik. Unda inson o'zi tug'ilgan yurtiga bo'lgan mehri tuganmas sog'inchi tasvirini ko'ramiz. Necha yillar qumsab, oxiri ota yurtiga borishga muvaffaq bo'lgan qahramonimiz quvonchini his qilish, albatta, o'quvchi uchun ham hayajonli. Adib bu asarda psixologik badiiy tasvirlarni, psixologik tahlini, ramzlar va majozlarni mukammal tarzda qo'llagan. Uning asarlaridagi milliy qadriyatlar, xalqning hayoti bilan uyg'unlik muhim sanaladi.

Yozuvchining yana bir "Olam tortilish qonuni" hikoyasida biz ba'zi insonning faqat odamlar uchun yashashini ko'ramiz. Oxirida esa hech kim oilasidek bo'la olmasligini tushunib yetadi. Xolmirzayevning uslubi o'zining noan'anaviy va samarali yondashuvlari bilan ajralib turadi. U asarlarini o'quvchini jozibador qilib jalb etadigan, chuqur ma'no va ta'sirchan tasvirlar bilan boyitadi. Hikoyalarida kishilarning ichki kechinmalarini, orzulari va ijtimoiy holatini yoritib, asarlari zamonamizdagi ahamiyatli muammolarni, shaxsiy va axloqiy izlanishlarni ko'rsatadi. Hikoyalari, nafaqat, badiiy, balki axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. U xalqning ma'naviy yuksalishi, adolatga bo'lgan intilishi va insoniy qadriyatlarini saqlashga undaydi. Yozuvchining hikoyalaridagi muammolar zamonaviy adabiyotda yangi uslublar va yondashuvlarni kiritishga asos bo'lib, o'zbek adabiyotining boyishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy va axloqiy masalalar zamonaviy hayotdagi muhim vazifalarni o'rta qo'yadi va o'quvchiga o'z dunyoqarashini shakllantirishda yordam beradi.

Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, Shukur Xolmirzayevning hikoyanavislik mahorati, u yaratgan bebaho asarlari mangu va umrboqiy bo'lib, nafaqat, o'quvchiga badiiy zavq bag'ishlaydi, balki hikoyalaridagi ramziylik har qanday kitobxonni o'yga cho'mdiradi. Shuningdek, adib hikoyalari jamiyatdagi yosh adiblar yaratadigan asarlariga ham o'ziga xos meros vazifasini bajardi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rustamov N. O'zbek nasrida insoniy qadriyatlar. – T. 2015, 128 B.
2. Karimov K. Shukur Xolmirzayevning badiiy olami. – T. 2005, 130 B.
3. Abdurahmonov O. Adabiy janrlar taraqqiyoti. – T. 1998, 84 B.
4. Shukur Xolmirzayev Kimsasiz hovli. – T. 2015, 65 B.
5. G'ulomov T. Hikoyanavislarimiz va ularning o'ziga xos uslubi. Monografiya. – T. 2016. 138 B.